ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№8
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 224 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi....14
**Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna**

O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari....20
**Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li**

Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi....25
**Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi ....30
**Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi**

Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati ....33
**Eshmuminova Oybarchin Botirovna**

Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv....39
**Isayeva Mushtariy Alisher qizi**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari ....44
**Maydonova Saboxat Sadulloyevna**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari....48
**Mingbayeva Barno Ubaydullayevna**

Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies....52
**Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna**

Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari ....55
**Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi**

"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida ....59
**Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna**

O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni ....65
**Umarova Feruzabonu Bobir qizi**

Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri....68
**Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich**

O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari ....72
**Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li**

Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida....76
**Boypolvonov Barot Djonqobulovich**

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini....81
**Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi**

O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari ....86
**Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li**

Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri ....90
**Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna**

Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish....96
**Koshayeva Sansabila Kamiljanovna**

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni....100
**Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati....105
**Murodova Madina Karim qizi**

Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari ....108
**Ortiqov Mironshoh Sodiqovich**

Boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini Oʻzbekiston oliy taʼlim tizimiga tatbiq etish ........ 110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna

Oʻzbekistonda taʼlim sohasi boʻyicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari ........ 115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna

Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika ........ 120
Sidiqova Yulduz Sobirovna

6-sinf oʻquvchilarida matn bilan ishlash koʻnikmasini shakllantirish metodikasi ........ 123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi

Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ........ 128
Yusupov Ulugʻbek Kadirovich

Adabiy taʼlim jarayonida oʻquvchi maʼnaviy kamolotini taʼminlashda motivatsiya uygʻotish texnologiyalarini takomillashtirish ........ 132
F. Zaynabuddinov

Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза ........ 135
Киреева Эльвина Фларитовна

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar ........ 140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich

Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish ........ 144
Boyboʻriyeva Saodat Oʻralovna

Kattalar taʼlimi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yoʼnalishlari ........ 148
Davletova A.

Yangi Oʻzbekistonda inklyuziv taʼlimni rivojlantirishning huquqiy asoslari ........ 152
Gʻaniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi

Innovatsion taʼlim texnologiyalari asosida boʻlajak oʻqituvchilarni maʼnaviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish . 156
Madmarova Gulchexra Qodirovna

Oʻlkashunoslik materiallarining oliy taʼlim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish ........ 160
Mamajonov Moʻminjon

Muhandislik grafikasi darslarida oʻquv faoliyatining shaxsga yoʻnaltirilgan innovatsion modeli ........ 165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi

Sunʼiy intellektga asoslangan taʼlimiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari ........ 169
Muhiddinov Muhriddin Nuriddin oʻgʻli

Ijod maktablari oʻquvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati ........ 173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna

Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning oʻyin ampluasini hisobga olgan holda aniqlash usullari ........ 178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi

PIRLS baholash tizimini qoʻllash vositasida mustaqil oʻqishga oʻrgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish ........ 184
Olimjonova Oʻgʻilxon Abdurasul qizi

Yoshlar oʻrtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik koʻrinishlari ........ 188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich

Boshlangʻich maktabda oʻzbek tili darslarida differensial taʼlimdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari ........ 192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi

Ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutqini takomillashtirish ........ 196
Sharofova Nilufar Ilhom qizi

Xalqaro baholash dasturlari asosida taʼlim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida) ........ 200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna

Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlangʻich sinflarda shakllantirish va oʻrgatishning oʻziga xos xususiyatlari ........ 204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari ............208
Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi

Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili.....................................................................................................214
Zarina Itolmasova

Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar..............................................................219
Hasanova Sumanbar Hamroqulovna

# YANGI O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi
Alfraganus Universiteti oliy ta'lim tashkiloti
Pedagogika va Psixologiya fakulteti Defektalogiya yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sohasida Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bir qator ishlarning samaradorligi va uning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etishdagi asosiy pedagogik yordam, o'qituvchilarni tayyorlash va maxsus ta'lim dasturlarining rivojlanishi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, disleksiya, kognitiv, indikator, strategiya, empatiya, kreativlik, innovatsiyalar, infratuzilma, "Imkon".

**Abstract:** This article analyzes the effectiveness of a number of measures being implemented in the field of inclusive education in New Uzbekistan and its legal foundations. It also discusses the main pedagogical support for implementing inclusive education in the educational system, teacher training, and the development of special education programs.

**Key words:** inclusive education, dyslexia, cognitive, indicator, strategy, empathy, creativity, innovations, infrastructure, "Imkon".

**Аннотация:** В данной статье анализируется эффективность ряда мероприятий, реализуемых в области инклюзивного образования в Новом Узбекистане, а также их правовые основы. Также рассматриваются основные педагогические аспекты внедрения инклюзивного образования в систему образования, подготовка учителей и развитие специальных образовательных программ.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, дислексия, когнитивный, индикатор, стратегия, эмпатия, креативность, инновации, инфраструктура, "Имкон".

## KIRISH

O'zbekistonda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. O'zbekistonda maktabda o'qish majburiy hisoblanadi. Ta'lim tizimi yagona va uzluksiz bo'lib, ta'lim turlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Biroq bularning barchasi o'sib kelayotgan, ertamiz egalari bo'lgan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ularning komil inson bo'lib voyaga yetishlariga zamin hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim deganda nima tushuniladi? Inklyuziv ta'lim – bu o'z ichiga har xil ijtimoiy, jismoniy, aqliy imkoniyatlarga ega bo'lgan barcha bolalarning bir xil maktab muhitida ta'lim olishini nazarda tutuvchi ta'lim yondashuvidir. Mazkur modelda ta'lim tizimining madaniyati, infratuzilmasi va pedagogik strategiyalari barcha foydalanuvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'ladi. Bu yondashuv faqat nogiron bolalarni emas, balki barchani o'ziga jalb etadi. Ayniqsa, disleksiya, diqqat etishmovchiligi, ruhiy rivojlanishdagi o'ziga xos xususiyatlari bo'lgan farzandlar uchun juda foydali hisoblanadi. Xalqaro hamkorlik va donor tashkilotlar yordami. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim sohasida YUNESKO, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ushbu hamkorlik doirasida imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun ta'lim sifatini yaxshilash va ta'lim tizimining uzviyligini oshirishga qaratilgan turli loyiha hamda dasturlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ayni sohada bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori bu borada amalga oshirilishi mo'ljallangan sa'y-harakatlar uchun huquqiy asos bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur qaror bilan

2020–2025-yillar uchun xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020–2021-yillarda uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi", shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi.

E'tiborlisi shundaki, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Nogironligi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini, mehnatga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ilm-fan, texnika, san'at va madaniyat, sport sohalariga jalb etish borasida bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 21-dekabrdagi PQ-57-sonli qarorining 9-bandiga muvofiq, Yoshlar ishlari agentligi nogironligi bo'lgan yoshlarga o'zini o'zi band qilish, tadbirkorlikka jalb qilish, kasb-hunarga o'qish uchun joriy etilgan subsidiyalardan foydalanishda ko'maklashish, nogironligi bo'lgan yoshlarning xorijiy tillarni o'rganish va nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'qish xarajatlarini qoplash, zarur asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilishiga yordamlashish choralarini ko'rish vazifasi yuklatilgan.

2020–2025-yillar uchun mo'ljallangan inklyuziv ta'lim konsepsiyasi e'lon qilindi va 2020-yil 13-oktabrda Prezident farmoni №4860 bilan tasdiqlandi. Shuningdek, mazkur farmon inklyuziv ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga integratsiya qilishni nazarda tutishi bilan ajralib turadi. Natijada, 2022–2023 o'quv yilida 225 ta maktab inklyuziv ta'lim uchun ochildi, 2024–2025-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 530 taga yetkazilib, 1 195 nafar imkoniyati cheklangan bola umumta'lim muassasalarida o'qiy boshladi. Ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish borasida olib borilgan ishlar yanada samarali bo'lishi uchun inklyuziv yondashuvda o'qituvchi va maxsus pedagoglarning roli ham kengayadi.

Zamonaviy metodologiyalar – masalan, Universal Design for Learning (ta'limning har bir o'quvchi uchun moslashtirilgan dizayni) – asosida darslar olib boriladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv muhitda ta'lim olganlarida ijtimoiy ko'nikmalar va akademik natijalarda sezilarli o'sishga erishadi. Masalan, Portugaliyada 98 % nogironlar umumta'limda o'qishi ta'lim sifatini oshirganligi kuzatilgan. Bu bolalar kelajakda o'zini mustaqil boshqara oladigan, yuqori darajadagi ishga va jamiyat hayotiga moslashgan shaxs bo'lib yetishadi. Inklyuziv ta'limda ham sog'lom, ham nogiron bolalar hamkorlikda ta'lim oladi. Bu esa empatiya, hurmat va ko'plab ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Qolaversa, bunday muhit sog'liqni saqlash, salomatlik va maktabga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida davlat tomonidan bir qator amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda. Ushbu yordamlar nogironligi bo'lgan va maxsus ehtiyojli o'quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim olish jarayonlarini osonlashtirish hamda jamiyatga integratsiyalashishda ularga qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga qaratilgan. Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy yordamlar quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun moslashtirilgan ta'lim dasturlari va metodik qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda. Masalan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun o'qish va yozish jarayonlarini yengillashtiradigan texnologiyalar, til va nutqni rivojlantirish dasturlari hamda vizual materiallar taqdim etilmoqda.

Ta'lim muassasalarining infratuzilmasini moslashtirish. O'zbekistonda maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida ko'plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Maktablarda liftlar, maxsus o'quv jihozlari, nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun moslashtirilgan sinfxonalar va boshqa zarur infratuzilmalar yaratilmoqda. Ushbu imkoniyatlar ta'lim olish jarayonini soddalashtirib, barcha o'quvchilar uchun teng sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. O'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish. Inklyuziv ta'limni samarali joriy etish uchun o'qituvchilarning maxsus ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda turli treninglar, kurslar va seminarlar tashkil etilmoqda. Jamiyatni inklyuziv ta'limga jalb qilish. Davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan jamiyatda inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash va maxsus ehtiyojli o'quvchilarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan ko'plab ijtimoiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar orqali fuqarolar ushbu jarayonda o'z o'rni va mas'uliyatini anglay boshlamoqda.

Moliyaviy yordam va grantlar. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun zarur resurslar bilan ta'minlash maqsadida davlat tomonidan moliyaviy yordam va grantlar hajmi sezilarli darajada oshirilmoqda. Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun texnologik yordam vositalari, o'quv materiallari, metodik qo'llanmalar va boshqa zarur o'quv jihozlarini xarid qilishda davlat qo'llab-quvvatlashi mavjud. Xalqaro hamkorlik. O'zbekiston inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida xalqaro tashkilotlar, jumladan, UNESCO, BMT va boshqa donorlar bilan hamkorlik olib bormoqda. Ushbu hamkorlik doirasida ta'lim tizimiga ilg'or xalqaro tajriba va resurslar jalb qilin-

moqda. Maxsus transport xizmatlari. O'zbekistonning ayrim hududlarida nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun maxsus transport xizmatlari yo'lga qo'yilgan. Bu xizmatlar orqali o'quvchilarning maktablarga xavfsiz va qulay tarzda yetib borishi ta'minlanmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida bu katta ahamiyat kasb etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limdagi innovatsiyalardan biri bo'lgan "Imkon" loyihasi doirasida samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan, UNESCO tomonidan qo'llab-quvvatlangan "Imkon" – jamiyatda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha eng muhim loyihalardan biri bo'lib, bu yerda bolalarga to'liq reabilitatsiya va ta'lim xizmatlari bir makonda ko'rsatiladi. UNESCO tomonidan qo'llab-quvvatlangan "Imkon" markazlari (masalan, Nukus, Qarshi, Kibray) nogironligi bo'lgan bolalarga bir necha xizmatni bir joyda taqdim etadi. Birgina Nukusdagi markazda 2019-yildan beri 342 nafar bola kun bo'yi kompleks ta'lim olgan, 90% ijtimoiy moslashuv, 98% motor ko'nikmalar va 92% nutq rivojlanishi ko'rsatkichlari qayd etilgan. Ushbu dastur orqali 3 724 ta reabilitatsiya kursi o'tkazilib, malakali psixolog, logoped va terapevtlardan iborat jamoa faoliyat yuritmoqda.

Inklyuziv ta'lim Respublikamiz ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Buning natijasida ta'lim sifati oshgani, ta'limga bo'lgan tushunchalarning o'zgargani, zamonaviy metodlarning joriy etilgani hamda inklyuziv muhitda tarbiyalangan bolalarning ijtimoiy, kognitiv va psixologik jihatdan rivojlanayotgani – yosh avlodga yaratilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishiga zamin bo'lmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. "Imkon" markazlari kabi loyihalar ushbu yo'nalishni yanada ko'lamli va jozibador qilishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim – jamiyatda barcha o'quvchilarning teng huquqliligini ta'minlashga qaratilgan muhim yondashuvdir. Jahon tajribasi inklyuziv ta'limni amalga oshirishda ijobiy natijalar va o'ziga xos yondashuvlarni ko'rsatmoqda. O'zbekistonda ham ushbu yondashuvni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi jamiyatda tenglik, adolat va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Uni yanada rivojlantirish uchun davlat va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarur. Inklyuziv ta'lim bolalarga teng imkoniyatlarni kafolatlaydi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va kelajak avlod uchun to'g'ri, hurmatli hamda empatik jamiyatni shakllantiradi. Bu orqali biz ijtimoiy moslashuvni mustahkamlaymiz va O'zbekistonni yanada taraqqiy etgan davlatga aylantiramiz. Shunday ekan, ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida hududlarda inklyuziv maktablar qamrovini kengaytirish lozim, deb o'ylayman. Bundan tashqari, pedagoglar salohiyatini oshirish, oliy o'quv yurtlarida maxsus pedagogika sohasi uchun ajratilayotgan kvotalar sonini ko'paytirish, ota-onalarni qo'llab-quvvatlash hamda inklyuziv ta'lim tushunchasini keng yoyish va to'g'ri talqin qilishga erishsak, jamiyatda nogironligi bo'lgan, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga to'la moslashtira olamiz. Bu esa yurt kelajagi va uning ravnaqiga ko'zga ko'rinmasa-da, sezilarli hissa qo'shish imkonini beradi – bu esa, albatta, quvonarli holat, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Albatta, har bir maxsus pedagog o'z hududidagi joriy qilingan inklyuziv ta'lim tarbiyalanuvchisiga ta'lim berar ekan, bir tomondan ish bilan ta'minlanish masalasi ijobiy hal bo'lsa, boshqa tomondan esa murg'ak qalblarga berilayotgan quvonch, ularning yashashga, rivojlanishga va ijtimoiy muhitga tez kirishuvchan bo'lishiga xizmat qiluvchi muhim omilga aylanadi. Shu bilan birga, ota-onalarning farzandlariga bo'lgan ishonchi ortadi, ularni mo'jizakor kelajak bunyodkorlari sifatida ko'ra olish hissi ularda faxr-iftixor tuyg'ularini shakllantiradi. Bu esa – katta baxt emasmi? Buning uchun maktab–yurt–mintaqa hamkorligi orqali harakat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, inklyuziv ta'lim – bu barcha o'quvchilar, jumladan, alohida ehtiyojga ega bo'lganlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan ta'lim yondashuvi bo'lib, uning asosiy maqsadi – ijtimoiy tenglikni ta'minlashdir. Buning uchun Respublikamiz ta'lim tizimida zarur infratuzilma yaratilmoqda, o'qituvchilarni tayyorlash va maxsus resurslar bilan ta'minlash ishlari davom etmoqda. Inklyuziv ta'limning afzalliklari, xususan, uning ijtimoiy ko'nikmalar, tenglik va shaxsiy rivojlanishga ta'siri – jamiyatdagi barqarorlikni oshiradi hamda barcha a'zolar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Uni rivojlantirishda davlat, ta'lim muassasalari va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari g'oyat muhim ahamiyatga ega.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston inklyuziv ta'limni yangi bosqichga olib chiqayotgan bir paytda, bu tizim tom ma'noda "barchaga, hamma uchun" tamoyili asosida shakllanmoqda. Mobil guruhlar va "Imkon" markazlari orqali dastlabki bosqichdan boshlab keng qamrovli yondashuv yaratilmoqda. SmartED dasturi esa konseptual transformatsiya va raqamli metodologiyalarni o'zida mujassam etadi.

Bu jarayonda jamiyat, davlat va xalqaro hamkorlik birlashib, bolalarning har biriga teng va sifatli ta'lim berishni maqsad qilgan. Ushbu loyiha nafaqat ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi, balki yosh avlodda empatiya, hurmat, bilim va kreativlikni rivojlantiradi. Tahliliy jihatdan qaraganda, bu O'zbekistonni Markaziy Osiyoda ta'lim innovatsiyalari markaziga aylantirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi (2010). "Ta'lim to'g'risidagi qonun." Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. https://lex.uz/docs/-5013007
2. Mustafayeva, S. (2019). "Inklyuziv ta'lim: O'zbekiston tajribasi va rivojlanish istiqbollari." "Ta'lim va jamiyat" jurnali.
3. Sharipov, A. (2021). "O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish: haqiqiy imkoniyatlar va muammolar." Ta'limdagi innovatsiyalar.
4. Jabborova, G. (2020). "Inklyuziv ta'limga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash: O'zbekistondagi holat." Ta'lim va taraqqiyot.
5. Jabborova, G. (2020). "Inklyuziv ta'limda davlat tomonidan ko'rsatiladigan yordamlar: O'zbekistonning holati." Ta'lim va rivojlanish.
6. Sodiqov, A., & Rahmatov, M. (2018). "Maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limning pedagogik asoslari." Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
7. Sayfutdinova, M. (2017). "O'zbekistonda inklyuziv ta'limning rivojlanishi va global tajriba." Xalqaro ta'lim jurnali.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2013). "O'zbekistonda maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun ta'limni tashkil etish to'g'risidagi qaror." Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
9. Tursunov, D. (2020). "Jamiyatda inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash: O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlar." Jamiyat va ta'lim.
10. Xo'jaeva, D. (2021). "Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistondagi amaliy tajribalar." Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.